


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2022- yil yanvar-dekabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 5 656 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 4 806 ta, oilaviy korxonalar 249 ta, xususiy korxonalar 262 ta, muassasalar 152 ta va boshqalar 187 tani tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi
(1-yanvar holatiga ko‘ra)



Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 9 887 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 5,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,5 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 1,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda – 8,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 3,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) o‘shidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 378 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,9 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili fuqarolik obyektlarini qurishda – o'tgan yilga nisbatan 19,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 9,2 %), bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 8,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,6 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida – 3,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,2 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 13 279 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 9,7 % ga (jami savdodagi ulushi 63,8 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashda o'tgan yilga nisbatan – 9,1 % ga (jami savdodagi ulushi 7,2 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 20,1 % ga (jami savdodagi ulushi 29,0 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2 028 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 6,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,8 %), yashash bo'yicha xizmatlar – 9,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,2 %) o'sishidir.

**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 639 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar sonidan nashriyotchilik faoliyatida o'tgan yilga nisbatan – 16,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 9,1 %), kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan – 16,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 29,4 %), aloqa yo'nalishida – 13,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 46,2 %), axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyatda o'tgan yilga nisbatan 10,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,3 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o'tgan yilga nisbatan – 9,1 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,8 %) o'sgan.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishda o'tgan yilga nisbatan – 100,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,2 %) tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 3 220 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 104 taga yoki 3,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 962 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 43 taga yoki 1,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 249 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 33 212 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 922 taga yoki 13,4 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 31 270 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 920 taga yoki 14,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 806 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 367 taga yoki 22,1 % ga kamayganligini ko'rsatmoqda.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofimlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**Andijon viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni**
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 446 tani tashkil etib, ulardan 433 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 56 taga yoki 14,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 75 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
davlatlar kesimida soni**
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	222	299	339	372	433
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16	25	24	22	30
Sanoat	156	179	191	204	217
Qurilish	7	19	21	27	35
Savdo	21	35	47	54	79
Tashish va saqlash	2	2	4	4	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	7	9	9	10
Axborot va aloqa	-	5	4	4	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	3	5	5	6
Boshqa turlar	12	24	34	43	46

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (40 474 ta) nisbatan 4 184 taga oshib, o'sish sur'ati 110,3 foizni tashkil etdi. Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Andijon (137,5 foiz), Baliqchi (118,7 foiz), Paxtaobod (113,0 foiz), Xo'jaobod (112,6 foiz) va Izboskan (111,9 foiz) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Viloyat bo'yicha:	433	259	174
shaharlar:			
Andijon	177	95	82
Xonobod	18	12	6
tumanlar:			
Andijon	32	22	10
Asaka	29	17	12
Baliqchi	9	5	4
Bo'ston	9	8	1
Buloqboshi	18	9	9
Jalaquduq	19	8	11
Izboskan	8	2	6
Ulug'nor	6	4	2
Marhamat	14	11	3
Oltinko'l	25	16	9
Paxtaobod	9	7	2
Xo'jaobod	15	11	4
Shahrixon	30	21	9
Qo'rg'ontepa	15	11	4

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 433 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 116,4 foizga, ya'ni 61 donaga ko'paygan.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Andijon shahrida 31,2 %, Asaka 7,7 %, Andijon 7,4 %, Shahrixon 6,8 %, Baliqchi 5,7 %, Izboskan 5,3 %, Oltinko'l 4,8 %, Xo'jaobod 4,7 %, Marhamat 4,6 %, Qo'rg'ontepa 4,5 %, Paxtaobod 4,4 %, Jalaquduq 4,0 %, Buloqboshi 2,9 %, Ulug'nor 2,0 %, Bo'ston 1,9 % tumanlari va Xonobod shahri 2,1 % ni tashkil etadi.


**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni


(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (25,3 %), Andijon (19,3 %), Shahrixon (12,1 %), Asaka (11,7 %), Andijon shahri (9,6 %), Qo'rg'ontepa (7,2 %), Izboskan (3,2 %), Baliqchi (3,2 %), Oltinko'l (2,4 %), Buloqboshi (1,2 %), Paxtaobod (1,2 %), Jalaquduq (1,2 %), Ulug'nor (1,2 %), Marhamat (0,4 %) tumanlari va Xonobod shahri (0,8 %) ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining % dagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.